

INGLIZ TILI O‘QITISHDA BLENDED LEARNING YONDASHUVINING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY TATBIQI

Alimova Xilola Rustamovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Xorijiy Filologiya fakulteti

Fakultetlararo ingliz tili kafedrası katta o‘qituvchisi

e-mail: hilolaalimova0304@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada ingliz tilini o‘qitishda blended learning (aralash ta‘lim) yondashuvining nazariy asoslari, pedagogik mohiyati va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda an‘anaviy yuzma-yuz ta‘lim va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali ta‘lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, blended learningni joriy etishda yuzaga keladigan asosiy muammolar — texnologik infratuzilma yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli malakasi pastligi, o‘quvchilarning texnologiyani qabul qilish darajasi, baholash va mustaqil o‘rganish masalalari, ijtimoiy-psixologik to‘siqlar tahlil qilinib, ilmiy asoslangan yechimlar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tili o‘qituvchilari, metodistlar va ta‘lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *blended learning, aralash ta‘lim, ingliz tili o‘qitish, raqamli texnologiyalar, onlayn ta‘lim, yuzma-yuz ta‘lim, metodika, baholash, mustaqil o‘rganish, raqamli pedagogika.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ПОДХОДА BLENDED LEARNING В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Алимова Хилола Рустамовна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Факультет зарубежной филологии

Старший преподаватель Межфакультетской кафедры английского языка

e-mail: hilolaalimova0304@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье анализируются теоретические основы, педагогическая сущность и практическое применение подхода blended learning (смешанного обучения) в преподавании английского языка. В исследовании рассматриваются возможности повышения эффективности обучения

посредством интеграции традиционного очного обучения и цифровых технологий. Кроме того, анализируются основные проблемы, возникающие при внедрении смешанного обучения, включая недостаточное развитие технологической инфраструктуры, низкий уровень цифровой компетентности преподавателей, степень готовности обучающихся к использованию технологий, вопросы оценивания и самостоятельного обучения, а также социально-психологические барьеры. На основе проведённого анализа предлагаются научно обоснованные пути их решения. Результаты исследования могут служить основой для разработки практических рекомендаций для преподавателей английского языка, методистов и образовательных учреждений.

Ключевые слова: *blended learning, смешанное обучение, преподавание английского языка, цифровые технологии, онлайн-обучение, очное обучение, методика, оценивание, самостоятельное обучение, цифровая педагогика.*

THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL IMPLEMENTATION OF THE BLENDED LEARNING APPROACH IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Khilola Rustamovna Alimova

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Faculty of Foreign Philology

Senior Lecturer, Interfaculty Department of English Language

e-mail: khilolaalimova0304@gmail.com

ABSTRACT

This scientific article examines the theoretical foundations, pedagogical essence, and practical implementation of the blended learning approach in English language teaching. The study highlights opportunities for enhancing educational effectiveness through the integration of traditional face-to-face instruction and digital technologies. Furthermore, it analyzes the major challenges associated with the implementation of blended learning, including inadequate technological infrastructure, insufficient digital competence of teachers, students' readiness to adopt technology, issues related to assessment and independent learning, as well as socio-psychological barriers. Based on the analysis, scientifically grounded solutions to these challenges are proposed. The findings of the study contribute to the development of practical recommendations for English language teachers, methodologists, and educational institutions.

Keywords: *blended learning, English language teaching, digital technologies, online learning, face-to-face learning, teaching methodology, assessment, independent learning, digital pedagogy.*

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda an'anaviy ta'lim shakllarini zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro muloqot, ilmfan va texnologiya tili sifatida dunyo miqyosida yetakchi o'rinni egallaganligi sababli, uni o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish muhim vazifalardan biridir. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlari yangi pedagogik yondashuvlarni, jumladan, blended learning (aralash ta'lim) metodikasini keng qo'llash imkoniyatini yaratdi. Blended learning yondashuvi auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda onlayn platformalar, multimedia vositalari va mustaqil ta'lim faoliyatini uyg'unlashtiradi. Bu esa o'quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini raqamlashtirish, xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "Chet tillarini o'rganishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ushbu yo'nalishdagi islohotlarni qonuniy asoslab berdi. Ushbu hujjatlarda ta'kidlanganidek, pedagogik kadrlarning raqamli kompetensiyasini oshirish, interaktiv resurslar va platformalardan foydalanish orqali til o'rganish samaradorligini oshirish talab etilmoqda.

Blended learning tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, ularning barchasida umumiy jihat — an'anaviy va raqamli ta'lim shakllarining uyg'unlashuvi asosiy o'rinda turadi. Graham (2006) blended learningni an'anaviy yuzma-yuz ta'limni onlayn ta'lim elementlari bilan maqsadli tarzda birlashtirish deb tariflaydi, bunda asosiy e'tibor o'quv jarayonini samarali, moslashuvchan va o'quvchi uchun individual o'rganish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratiladi. Horn va Staker (2014) blended learningni ta'limning qat'iy formatdan chiqqan, onlayn va oflayn faoliyatlarni uyg'unlashtirgan pedagogik model deb ataydi. Ularning fikriga ko'ra, bu yondashuv nafaqat texnologik vositalarni

qo'llash, balki ta'lim maqsadlariga erishishda o'quv jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirishning muhim vositasidir.

Garrison va Kanuka (2004) o'zlarining tadqiqotlarida aralash ta'limni uch asosiy komponent orqali tavsiflaydilar. Birinchisi — yuzma-yuz ta'lim (face-to-face learning) bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchilar bevosita auditoriyada o'zaro faoliyat olib boradilar. Yuzma-yuz ta'lim o'quvchilarning gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Richards va Rodgers (2014) ta'kidlaganidek, yuzma-yuz muloqot til o'rganishda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda markaziy rol o'ynaydi. Guruh ishlari, rol o'yinlar va muhokamalar orqali o'quvchilar til bo'yicha kommunikativ salohiyatini oshiradi.

Ikkinchi komponent — onlayn o'quv faoliyati bo'lib, unda o'quvchilar mustaqil ravishda onlayn resurslar, multimedia materiallar, virtual muhokamalar va interaktiv topshiriqlardan foydalanadilar. Bu yondashuv o'quvchilarning o'z vaqtida va mustaqil o'rganish imkoniyatini ta'minlaydi hamda an'anaviy ta'limga nisbatan yuqori darajada moslashuvchanlikni beradi. Means va boshqalar (2013) ta'kidlaganidek, onlayn faoliyat o'quvchilarning o'z vaqtini boshqarish, mustaqil o'rganish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Onlayn platformalar orqali o'quvchilar real vaqt rejimida fikr-mulohaza olishlari, turli aksent va kontekstlardagi audio-video materiallarni tahlil qilishlari mumkin. Onlayn faoliyatning yana bir o'ziga xos jihati — multimedia materiallardan foydalanish orqali til o'rganishni jonlantirishdir. Video, audio, animatsiyalar va interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning bilimni vizual va eshitish orqali qabul qilishini ta'minlab, ularning e'tiborini jalb etadi hamda o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

Uchinchi komponent — baholash va fikr-mulohaza tizimi bo'lib, u o'quvchilarning o'sish jarayonini doimiy kuzatish va individual tarzda qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu tizim turli formatdagi baholash vositalarini o'z ichiga oladi: testlar, yozma topshiriqlar, loyihalar, guruh ishlari va onlayn interaktiv mashqlar. Gikandi va boshqalar (2011) ta'kidlaganidek, onlayn platformalar orqali amalga oshiriladigan formatif baholash o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini doimiy kuzatish va tezkor tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Fikr-mulohaza (feedback) o'quvchining bilimni mustahkamlash va xatolarini tuzatish imkonini beradi. Onlayn platformalarda avtomatik va darhol fikr-mulohaza berish imkoniyati mavjud bo'lib, bu o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini rag'batlantiradi.

Blended learning o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. An'anaviy darslarda o'qituvchi markaziy rolni bajaradi, lekin blended learningda o'quvchi o'z o'rganish jarayonining faol

ishtirokchisiga aylanadi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z vaqtida, o‘z sur‘atida materiallarni qayta ko‘rib chiqish, mustaqil topshiriqlarni bajarish va o‘z bilimni baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Aralash ta‘lim yondashuvi shuningdek, baholash jarayonini qayta ko‘rib chiqadi. An‘anaviy ta‘limda baholash ko‘pincha tayyor natijalar — yakuniy testlar yoki imtihonlar orqali amalga oshiriladi. Blended learningda esa baholash jarayoni doimiy va formatif xususiyatga ega bo‘lib, o‘quvchining onlayn mashqlar, forumlar, loyiha ishlari va yuzma-yuz faoliyatlar orqali erishgan yutuqlari tahlil etiladi.

Blended learning yondashuvi ingliz tilini o‘qitishda to‘rt asosiy til ko‘nikmasini — tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishni rivojlantirishda keng qo‘llaniladi. Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda onlayn platformalar orqali autentik audio va video materiallar (podkastlar, intervyular, TED-Ed videolari) taqdim etiladi. Auditoriya mashg‘ulotlarida esa ushbu materiallar asosida muhokama va tahlil ishlari olib boriladi. Autentik materiallardan foydalanish o‘quvchilarning real hayotiy muloqotga tayyorgarligini oshiradi. Gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda blended learning ayniqsa samarali hisoblanadi. Onlayn muhitda videochatlar, virtual muhokamalar va ovozi topshiriqlar tashkil etilsa, auditoriyada rolli o‘yinlar, munozaralar va kommunikativ mashqlar amalga oshiriladi. Marzuki (2024) ta‘kidlaganidek, kichik guruhlarda tashkil etilgan muloqot mashg‘ulotlari o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi va til o‘rganishdagi psixologik to‘siqlarni kamaytiradi.

Til ko‘nikmasi	Onlayn faoliyat	Yuzma-yuz faoliyat
Tinglab tushunish	Podkastlar, TED-Ed videolari, audio materiallar	Eshirilgan matn yuzasidan muhokama va tahlil
Gapirish	Videochatlar, virtual muhokamalar, ovozi topshiriqlar	Rolli o‘yinlar, munozaralar, guruhli suhbatlar
O‘qish	Elektron matnlar, interaktiv mashqlar, onlayn testlar	Matn mazmunini chuqur tahlil qilish, savol-javob
Yozish	Bloglar, forumlar, elektron portfoliolar, onlayn topshiriqlar	Yozma ishlarni baholash, tuzatish va fikr-mulohaza

O‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishda elektron matnlar, interaktiv mashqlar va onlayn testlar muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar mustaqil ravishda matnlar bilan ishlaydi, lug‘at ustida mashqlar bajaradi va savollarga javob beradi, auditoriyada esa matn mazmuni chuqur tahlil qilinadi. Yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda esa bloglar, forumlar, elektron portfoliolar va onlayn topshiriqlar samarali vosita bo‘lib

xizmat qiladi. O‘qituvchi yozma ishlarni onlayn baholab, tezkor va konstruktiv fikr-mulohaza berish imkoniga ega bo‘ladi.

Blended learning yondashuvi ingliz tilini ta’limda quyidagi asosiy tarmoqlarda ahamiyat kasb etadi: moslashuvchan o‘rganish muhiti yaratish, ma’lumotlarga kirishning kengayishi, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish va baholash jarayonining doimiyligi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, blended learning modeli ingliz tilini o‘rgatishda o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini an’anaviy ta’limga nisbatan samaraliroq rivojlantiradi. Bekele va Belihu (2024) olib borgan tadqiqotda blended learning qo‘llanilgan guruhlarining til ko‘nikmalari post-test natijalarida an’anaviy darslarni olgan guruhga nisbatan sezilarli darajada yaxshilanganligi qayd etilgan. Blended learning o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va faol ishtirokni rag‘batlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Blended learningni joriy etishdagi muammolar va ularning yechimlari

Blended learning yondashuvini ingliz tilini o‘qitishda amaliyotga tatbiq etishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Tadqiqotlar ushbu muammolarni texnologik, pedagogik, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik guruhlariga ajratadi. Quyidagi jadvalda asosiy muammolar va ularga ilmiy asoslangan yechimlar tizimli ravishda keltirilgan:

Muammo	Tavsifi	Yechim
Texnologik infratuzilma yetishmasligi	Internet aloqasi barqaror emas, texnik vositalar va onlayn platformalar yetarli emas	Barqaror internet, zamonaviy texnik vositalar, LMS platformalarini joriy etish
O‘qituvchilarning raqamli malakasi pastligi	LMS, multimedia va interaktiv vositalardan foydalanish bo‘yicha bilim yetishmasligi	Doimiy malaka oshirish kurslari, mentorlik dasturlari, tajriba almashish
O‘quvchilarning texnologiyani qabul qilmasligi	Texnologik vositalarga ishtiyoq pastligi, bilim yetishmasligi	Intuitiv interfeys, gamifikatsiya, texnik yordam, boshlang‘ich treninglar
O‘qituvchi va o‘quvchi yuklarni ortishi	Ikki formatda dars rejalashtirish, ko‘p topshiriqlar, stress	Vazifalarni muvozanatli rejalashtirish, avtomatlashtirilgan baholash
Baholash va akademik halollik muammolari	Plagiat, tashqi yordam, baholash mezonlarining noaniqligi	Formativ baholash, autentik topshiriqlar, portfoliolar
Ijtimoiy-psixologik to‘siqlar	Ijtimoiy izolyatsiya, nutqiy xavotir, o‘qituvchi-o‘quvchi masofasi	Hamkorlikka asoslangan o‘qitish, qo‘llab-quvvatlovchi muhit, videoaloqa

Texnologik infratuzilma va resurslar yetishmasligi — bu blended learning samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biridir. Said Ibrahim va Fauziah Ismail (2021) tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, texnologik infratuzilma yetishmovchiligi nafaqat o‘quv jarayoniga, balki o‘quvchilarning motivatsiyasiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu muammoni hal qilish uchun ta‘lim muassasalarida barqaror internet tarmog‘i va zamonaviy texnik vositalarni ta‘minlash, Learning Management System (LMS) platformalarini joriy etish, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni raqamli savodxonlikka o‘rgatish zarur. Garrison va Vaughan (2008) ta‘kidlaganidek, texnologik infratuzilmani mustahkamlash blended learningni muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy shartidir.

O‘qituvchilarning texnologik bilim va malaka yetishmovchiligi — blended learningni tatbiq etishdagi eng muhim to‘siqlardan biri hisoblanadi. Baran va boshqalar (2011) bu holatni pedagogik samaradorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omil sifatida baholaydi. Doimiy malaka oshirish kurslari va treninglar, pedagoglar o‘rtasida tajriba almashish va mentorlik dasturlarini joriy etish bu muammoni hal qilishga yordam beradi. Picciano (2019) pedagogik hamkorlik va doimiy professional rivojlanish o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirishda muhim omil ekanligini ta‘kidlaydi.

O‘quvchilarning texnologiyani qabul qilishi va ishtiyoqi ham muhim muammo hisoblanadi. Hew va Brush (2007) ta‘kidlaganidek, o‘quvchilarning texnologiyani qabul qilishiga platformaning intuitiv dizayni, interaktiv vazifalar va gamifikatsiya elementlari ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Platformaning qulay interfeysi, interaktiv va gamifikatsiyalashgan vazifalar, texnik yordam va qo‘llanmalar taqdim etish, shuningdek, o‘quvchilarni texnologiyadan foydalanishga o‘rgatuvchi boshlang‘ich mashg‘ulotlar o‘tkazish bu muammoni hal qilishga xizmat qiladi.

O‘qituvchi va o‘quvchi yuklamasining ortishi — blended learning jarayonida yana bir muhim muammo sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchilar darslarni ikki formatda rejalashtirish, raqamli kontent yaratish va elektron baholashni amalga oshirishlari kerak bo‘ladi. O‘quvchilar uchun esa mustaqil onlayn topshiriqlar va forum muhokamalari yuklamani oshiradi. Vazifalarni muvozanatli rejalashtirish, avtomatlashtirilgan baholash vositalaridan foydalanish va o‘quvchilarga vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish bu muammoning samarali yechimi hisoblanadi.

Baholash va akademik halollik muammolari blended learningda dolzarb hisoblanadi. Onlayn baholashda plagiat, tashqi yordamdan foydalanish va avtomatik tarjima vositalariga haddan tashqari tayanish holatlari keng tarqalgan. Ellis va

boshqalar (2016) ta'kidlaganidek, aniq baholash mezonlari va doimiy fikr-mulohaza o'quvchilarning mustaqil o'rganish faolligini oshiradi. Formativ baholash usullari, autentik topshiriqlar, portfoliolar va plagiatni aniqlovchi dasturlardan foydalanish bu muammoni hal qilishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-psixologik to'siqlar — virtual muhitda ijtimoiy izolyatsiya, nutqiy xavotir (foreign language anxiety), o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy masofa kabi muammolar kuzatiladi. Horwitz va boshqalar (1986) til o'rganishdagi xavotir o'quvchilarning muloqot faolligini cheklashini aniqlaganlar. Hamkorlikka asoslangan o'qitish strategiyalari, qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhit, muntazam onlayn maslahatlar va videoaloqa orqali muloqotni faollashtirish bu to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Vygotsky (1978) ijtimoiy o'zaro ta'sir bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishiga xizmat qilishini ta'kidlagan.

METODIK TAVSIYALAR

Blended learningni ingliz tilini o'qitishda samarali tatbiq etish uchun quyidagi metodik tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

Tavsiya	Mazmuni
<i>Dars mazmuni va onlayn faoliyatlar o'rtasida muvozanat saqlash</i>	Onlayn komponentlar an'anaviy darslarni to'ldiruvchi va mustahkamlovchi rol bajarishi kerak
<i>O'quvchilarning texnologik tayyorgarligini hisobga olish</i>	Blended learning boshlanishida o'quvchilarga onlayn platformalar, baholash tizimi va mustaqil ishlash tartibi bo'yicha aniq yo'riqnomalar berish
<i>Baholash jarayonini tizimli va shaffof tashkil etish</i>	Formativ baholash usullaridan foydalanish va muntazam konstruktiv fikr-mulohaza berish
<i>Hamkorlikka asoslangan o'qitish strategiyalarini joriy etish</i>	Guruhli loyihalar, juftlikda ishlash, virtual muhokamalar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish
<i>O'qituvchining rolini qayta belgilash</i>	O'qituvchi an'anaviy bilim beruvchidan ko'ra fasilitator va mentor sifatida faoliyat yuritishi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, blended learning yondashuvi ingliz tilini o'qitishda an'anaviy va raqamli ta'lim shakllarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshiruvchi zamonaviy pedagogik modeldir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning mustaqil o'rganish, kommunikativ faollik va raqamli kompetensiyasini rivojlantiradi. Blended learningning asosiy komponentlari — yuzma-yuz ta'lim, onlayn o'quv faoliyati va baholash tizimi — bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, blended learningni ingliz tili ta'limiga izchil va ilmiy asoslangan holda joriy etish ta'lim

sifatini oshirish, o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etish bugungi til ta'limining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baran, E., Correia, A.-P., & Thompson, A. (2011). Transforming online teaching practice: Critical analysis of the literature on the roles and competencies of online teachers. *Distance Education*, 32(3), 421–439.
2. Bekele, T., & Belihu, T. (2024). The Impact of Blended Learning on English Language Skills Development. *Journal of English Language Teaching*, 15(2), 112-128.
3. Ellis, R. A., Pardo, A., & Han, F. (2016). Quality in blended learning environments. *Computers & Education*, 102, 68-81.
4. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95-105.
5. Garrison, D. R., & Vaughan, N. (2008). *Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines*. San Francisco: Jossey-Bass.
6. Gikandi, J., Morrow, D., & Davis, N. (2011). Online formative assessment in higher education: A review of the literature. *Computers & Education*, 57(4), 2333-2351.
7. Graham, C. R. (2006). Blended learning systems. In C. J. Bonk & C. R. Graham (Eds.), *The Handbook of Blended Learning* (pp. 3-21). San Francisco: Pfeiffer.
8. Hew, K. F., & Brush, T. (2007). Integrating technology into K-12 teaching and learning. *Educational Technology Research and Development*, 55(3), 223-252.
9. Horn, M. B., & Staker, H. (2014). *Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools*. San Francisco: Jossey-Bass.
10. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign Language Classroom Anxiety. *The Modern Language Journal*, 70(2), 125-132.
11. Marzuki, A. (2024). Blended Learning in English Education: Strategies for Effective Integration. *Journal of English Language Teaching*, 12(1), 45-58.
12. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., & Jones, K. (2013). *Evaluation of Evidence-Based Practices in Online Learning*. US Department of Education.
13. Picciano, A. (2019). Blended Learning: Implications for Growth and Access. *Online Learning*, 23(1), 15-28.

14. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
15. Said Ibrahim, M., & Fauziah Ismail, F. (2021). Factors and Challenges in Implementing Blended Learning. *Innovative Teaching and Learning Journal*, 5(2), 78-92.
16. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.